

## HIND-YEVROPA TILLARIDAN O'ZBEK TILIGA KIRIB KELGAN SO'ZLARING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

*Yayraxon Ashuraliyeva Bahodirjon qizi*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Hind –yevropa tillaridan o'zbek tiliga kirib kelgan kirib kelgan so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar va bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar haqida.

**Kalit so'zlar:** psixolingvistika, semantik yondashuv, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, o'zlashmalar, neologizmlar, sotsiolingvistika, etnolingvistika, polisemantika, so'z o'zlashtirish

**Аннотация:** В данной статье речь идет о лингвокультурологических особенностях слов, пришедших в узбекский язык из индоевропейских языков, сходствах и различиях между ними, а также проведенных в связи с этим научных исследованиях.

**Ключевые слова:** психолингвистика, семантический подход, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, усвоения, неологизмы, социоллингвистика, этнолингвистика, полисемантика, усвоение слов.

**Annotation:** This article deals with the linguistic and cultural features of words that came into the Uzbek language from the Indo-European languages, the similarities and differences between them, as well as the scientific research carried out in connection with this.

**Keywords:** psycholinguistics, semantic approach, linguoculturology, cognitive linguistics, assimilation, neologisms, sociolinguistics, ethnolinguistics, polysemantics, word assimilation.

**Kirish:** Zamonaviy tilshunoslikda o'z o'rniga ega bo'layotgan kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya hamda til birliklari tahliliga antropotsentrik yondashuv lingvistikaga ko'plab yangi tushuncha, terminologiya hamda tahlil usullarini olib kirdi. Ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning lingvomadaniy jihatlarini turli tizimli tillarda ijtimoiy va kommunikativ–pragmatik jihatdan tadqiq etilishi naqadar muhim ekanligini zamonaviy tilshunoslikda kognitiv yo'nalishning, xususan, lingvokulturologiya fanining rivojlanib borayotganligi bilan asoslash mumkin.

**Asosiy qism:** So'z o'zlashtirish har qanday til lug'at tarkibining shakllanishi va boyishida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. So'z o'zlashtirish lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, uning ta'siridan chetlab o'tgan tilni topish qiyin bo'lsa kerak. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy

munosabatlar natijasi o'laroq bir tildan ikkinchi tilga so'zlar, terminlar o'zlashadi. Ayni shunday vaziyat, holat turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. XX asr oxiri va XXI asrda yaratilgan zamonaviy kashfiyotlarni nomlovchi leksik birliklarning o'zbek tilida namoyon bo'ladigan xususiyatlari ham tadqiqotchilar nazaridan chetda qolmagan. Hozirgi global o'zgarishlar davrida millatlararo va mos ravishda, tillararo aloqalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat, o'z navbatida, tillarning asosiy jihatlaridan biri bo'lgan o'zlashtirish jarayonini faollashtirishga olib kelmoqda. Har qanday tilning boshqa lisoniy tizimlar bilan aloqasi til rivojlanishining ajralmas sharti ekanligi tilshunos olimlar tomonidan doimo qayd qilib kelingan.

O'zlashtirilgan so'zlar til shakllanish jarayonining ajralmas elementi sifatida, asosan, yangi narsalarni nomlash yoki ilgari noma'lum bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun tilda paydo bo'ladi. Shunday ekan, "o'zlashtirma" atamasining bu jarayonda bajaradigan nominativ funksiyalari ko'lami haqida xorijiy va mamlakatimiz tilshunoslarining fikrlarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

L. P. Krisin o'zlashmani "har xil elementlarning bir tildan boshqa tilga o'tish jarayoni" tarzida ta'riflaydi. Demak, *o'zlashma* atamasi tabiiy bir tildan boshqa tilga o'tadigan so'z va boshqalar o'zida ikki xil ma'noni mujassam etgan: a) bir tildan ikkinchi tilga o'tgan til birliklari; b) ularning boshqa tilga o'tish jarayonini anglatadi.

O'zlashtirilgan leksik birliklarni bildirishda "o'zlashtirish" so'zidan tashqari "o'zlashgan leksika", "chet so'z", "kelib chiqishi chet tilidan bo'lgan so'z" kabi atamalar ham qo'llaniladi. Terminologik beqarorlik tufayli ayrim tadqiqotchilar bu atamalarni turli tushunchalar orqali ifoda qilishadi, boshqalari esa ularni sinonim sifatida ishlatishadi.

S.A. Belyayevaning fikriga ko'ra, o'zlashtirish "begona" so'zning tilga kirib borishi, uning nutq darajasida takroran qo'llanilishi va keyinchalik til-retseptor tizimiga kirishini o'z ichiga olgan jarayondir.

A.V. Zorina o'z ta'rifida o'zlashmada leksik birlikning o'zlashtirilish jarayoniga urg'u beradi (faqat o'zlashtirilgan so'zni (assimilatsiyalangan) o'zlashma deyish mumkin).

Bizning fikrimizcha, "o'zlashma" terminining ta'rifi eng asosiysi bo'lib, kelgusida tadqiqotning usulini va mexanizmini tanlashda muhim omil bo'ladi. Amerikalik tilshunos L. Blumfeldning fikricha, o'zlashma – bu til hodisalarining ma'lum bir ko'rinishidir. Rossiyalik olimlar "o'zlashma" terminiga turlicha ta'rif berishgan. L.P. Krisin o'zlashma tushunchasini bir tildan boshqa tilga har xil elementlarni (morfologiya, fonologiya, leksika, semantika, sintaksisga oid) aralashtirish jarayoni sifatida tushunadi.

Bizning fikrimizcha, "o'zlashma" terminiga eng maqbul ta'rif I.G. Dobrodomov tomonidan berilgan: "O'zlashma – o'zga til elementi (so'z, morfema, sintaktik

konstruksiya va sh.k.) bo‘lib, til kontaktlari natijasida bir tildan ikkinchi tilga o‘tadi, shuningdek, elementlarning bir tildan ikkinchi tilga o‘tish jaraeni (o‘zlashtirish) hamdir”.

Hozirgi vaqtda “o‘zlashma” atamasining bir ma’noli talqini yo‘q. Buning sababi shundaki, xorijiy til birligini retsepiyent tilga tarjima qilish ko‘p tomonlama jarayon bo‘lib, unda bir nechta jihatlar ajralib turadi.

O‘tgan yuz yil ichida jamiyat taraqqiyoti tezlashdi. Insonlar ongi, ularning dunyoqarashi ham shunga muvofiq soddalikdan murakkablikka qarab o‘zgardi. Shuningdek, insonlarning kundalik iste’moldagi so‘zlari ham nutqiy rivojlanishda bo‘ldi, ko‘p ma’nolilik kasb etdi. Shunga muvofiq zamonaviy lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchaydi.

Tilda so‘z o‘zlashish jarayoni, asosan, xalqaro aloqalarning kengayishi, bozor munosabatlari shakllanishi, tovarlarning keng ko‘lamda savdo-sotiq, mafkuraviy yoki ijtimoiy aloqalar doirasida yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji, jamiyatning ma‘lum bir tuzumdan yangi shaklga o‘tishi kabilar bilan bog‘liq.

So‘z o‘zlashish jarayoni har bir jonli tilga xos bo‘lgan qonuniyat bo‘lib, dunyo tillari orasidagi ijtimoiy-madaniy, ma‘naviy sohalar asosida to‘xtovsiz harakatda bo‘ladi. Hattoki hozirgi ingliz tilida ham o‘zlashma qatlam so‘zlari taxminan 60 foizdan ortiq ekani manbalarda ta’kidlanadi.

Ingliz tili hind-yevropa tillari oilasining german guruhiga kiradi. Inlizcha so‘zlarning o‘zlashishi nafaqat o‘zbek tiliga, balki sobiq ittifoq tarkibidagi rus, chechen va gruzin kabi boshqa tillarga ham sezilarli ta’sir qildi. Biroq rus tili ingliz tili singari hind-yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lgani bois ularda bu tilning ta’siri tilimizga nisbatan faolroq sezilishini kuzatish mumkin.

O‘zlashmalarda yangilik bo‘yog‘i bo‘lganligi bois ularni manbalarda turlicha yozish holatlari ham kuzatilmoqda. Hatto O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham *noutbuk//notbuk*, *yogurt//yo‘urt*, *player//player*, *bluming//blyuming*, *kanistr//kanistra* kabi ayrim leksemalar imlosi ikki xil shaklga ega bo‘lib qolgan. Bu kabi so‘zlar o‘z qatlam leksikasida ham ko‘plab topiladiki, ularning imlosini imkon qadar ikki xil bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim deb o‘ylaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Apresyan Y. D.** Otechestvennaya teoreticheskaya semantika v konse XX stoletiya // *Izv. AN. Ser. lit. i yaz. T. 58. - № 4. - 1999.-S. 39-52;*
2. Akbarova M.I. O‘zbek va ingliz tillarida atoqli otlarning lingvomadaniy xususiyatlari: mag... diss. – Toshkent, 2015.
3. Arsenyeva M.G., Balashova S.P., Berkov V.P., Solovyeva L.N. Vvedeniye v germanskuyu filologiyu. / *Uchebnik dlya filologicheskix fakultetov. – M.: GIS, 2003 – S. 320.*
4. *Axmanova O. S. Ocherki po obshey i russkoy leksikologii. — M.: URSS, 2005.-294 s.*
5. Axmanova O.B. *Lingvistik terminlar lug‘ati. M.: SE, 1966. 608 b.*
6. Axmanova O.B. *Lingvistik terminlar lug‘ati. M.: SE, 1966. 248 b.*